Tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq moliyaviy risklarni baholashni takomillashtirish

Eshmamatov Davlat Nuriddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq moliyaviy risklarning asosiy turlari va ularni baholash yo‘llari yoritilgan. Xalqaro pul o‘tkazmalarida mijoz, geografik, tranzaksion, to‘lov kanali hamda identifikatsion-axborot risklarini kompleks baholash zarurligi asoslangan. Risklarni balli va integral baholash asosida yuqori riskli operatsiyalarni aniqlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, xalqaro pul o‘tkazmalari, moliyaviy risk, geografik risk, tranzaksion risk, risklarni baholash, moliyaviy monitoring.

Bugungi kunda bank xizmatlarining raqamlashtirilishi va xalqaro pul o‘tkazmalari ko‘lamining kengayishi tijorat banklarida moliyaviy risklarni aniqlash va baholash tizimlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Xalqaro pul o‘tkazmalari turli davlatlar, to‘lov tizimlari va moliyaviy institutlar ishtirokida amalga oshirilishi sababli bunday operatsiyalar bilan bog‘liq risklarni faqat pul o‘tkazmasi summasi asosida baholash yetarli emas.

O‘zbekistonda tijorat banklari uchun belgilangan yangi ichki nazorat qoidalarida xalqaro pul o‘tkazmalarida jo‘natuvchi va oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liqligi, hisobvaraq yoki operatsiyani kuzatish imkonini beruvchi xos raqam mavjudligiga alohida e’tibor qaratilgan. Xalqaro paketli o‘tkazmalarda ham jo‘natuvchi va oluvchini kuzatib borish imkonini beradigan ma’lumotlar mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xalqaro pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq moliyaviy risklarni beshta asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq: mijoz riski, geografik risk, tranzaksion risk, to‘lov kanali riski va identifikatsion-axborot riski.

Mijoz riski mijozning moliyaviy holati, faoliyat sohasi va operatsiyalar tarixiga bog‘liq bo‘lsa, geografik risk pul mablag‘lari yuborilayotgan yoki kelib tushayotgan mamlakatning risk darajasi bilan belgilanadi. Tranzaksion risk pul o‘tkazmasining summasi, takroriyligi va iqtisodiy maqsadi bilan bog‘liq. To‘lov kanali riski operatsiyani amalga oshirish vositasi va texnologiyasini, identifikatsion-axborot riski esa jo‘natuvchi hamda oluvchi haqidagi ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini ifodalaydi.

Amaldagi qoidalarga muvofiq, shubhali operatsiyalarni kompleks tahlil qilishda pul mablag‘larining kelib chiqish manbasi, operatsiyaning tuzilishi, ishtirokchilarning geografik joylashuvi, operatsiyaning vaqti va hajmi hamda mijozning moliyaviy profiliga muvofiqligi o‘rganilishi lozim. Bu xalqaro pul o‘tkazmalari risklarini ko‘p omilli baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur risklarni baholashda balli usuldan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda har bir risk omili 1 dan 5 gacha ball bilan baholanib, 1 ball — past, 5 ball esa juda yuqori riskni ifodalaydi. Turli risk omillarining ahamiyati bir xil bo‘lmagani sababli ularni vaznlashtirilgan integral ko‘rsatkich asosida umumlashtirish mumkin.

Xalqaro pul o‘tkazmalari riskini baholash uchun quyidagi integral yondashuv taklif etiladi:

$$IR = 0{,}20M + 0{,}25G + 0{,}25T + 0{,}15K + 0{,}15I$$

Bu yerda: IR - integral risk ko‘rsatkichi; M - mijoz riski; G - geografik risk;
T - tranzaksion risk; K - to‘lov kanali riski; I - identifikatsion-axborot riski.

Mazkur yondashuvda geografik va tranzaksion risklarga yuqoriroq vazn berilishi xalqaro pul o‘tkazmalarida operatsiyaning yo‘nalishi, hajmi va xususiyatlari risk darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi bilan izohlanadi. Integral ko‘rsatkichga ko‘ra operatsiyalarni past, o‘rta, yuqori va juda yuqori risk guruhlariga ajratish mumkin.

Yuqorida keltirib o‘tilgan hisoblash ko‘rsatkichlari asosida “O‘zmilliybank” aksiyadorlik jamiyati (NBU) misolida xalqaro pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq risklarni baholash bankning ochiq ma’lumotlari asosida amalga oshirildi. Bunda mijoz, geografik, tranzaksion, to‘lov kanali hamda identifikatsion-axborot risklari asosiy mezon sifatida olindi. Ushbu omillar integral baholash modeli orqali umumlashtirilib, operatsiyalarning umumiy risk darajasi aniqlandi.

“O‘zmilliybank” aksiyadorlik jamiyatida Western Union, MoneyGram, KoronaPay, Asia Express va SWIFT kabi xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatlari mavjudligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, bank Mastercard Send, Visa Direct va Visa+ kabi karta asosidagi xalqaro pul o‘tkazmalarini ham taklif etadi. Visa Direct orqali 50 dan ortiq mamlakatlarga mablag‘ yuborish imkoniyati mavjud.

1-jadval

“O‘zmilliybank” aksiyadorlik jamiyati misolida xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha risk omillarini balli baholash natijalari[1]

Risk turi	Ball	Baholashning qisqacha asoslanishi
Mijoz riski (M)	**3**	Saytda mijozlarni ichki risk guruhlariga ajratish bo‘yicha ochiq ma’lumot yo‘q; shu sababli neytral o‘rta ball qabul qilindi.
Geografik risk (G)	**3**	Xalqaro o‘tkazmalarning geografik qamrovi keng; Visa Direct 50 dan ortiq mamlakatga o‘tkazmalarni qo‘llab-quvvatlaydi.
Tranzaksion risk (T)	**3**	O‘tkazmalar summasi, chastotasi va mamlakatlar bo‘yicha real statistik ma’lumotlar ochiq emas, shu sababli o‘rta darajadagi proksi-baho qabul qilindi.
To‘lov kanali riski (K)	**3**	Xalqaro o‘tkazmalar filial, karta, elektron hamyon va Milliy mobil ilovasi kabi turli kanallarda amalga oshiriladi. Bank mobil ilova orqali 24/7 xalqaro o‘tkazmalarni ham taqdim etadi.)
Identifikatsion-axborot riski (I)	**2**	Pul o‘tkazmasini qabul qilishda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, nazorat raqami, jo‘natuvchi F.I.Sh., mamlakati va summa talab qilinadi; Milliy ilovasida masofaviy identifikatsiya mavjud.

Yuqoridagi 1-jadvald BUda xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatlarining keng geografik qamrovi va ularning bir nechta raqamli hamda an’anaviy kanallar orqali amalga oshirilishi geografik, tranzaksion va to‘lov kanali risklarining ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, bank saytida mijozlarni masofadan identifikatsiya qilish hamda xalqaro pul o‘tkazmalarini qabul qilishda zarur identifikatsion ma’lumotlarni talab qilish tartibining mavjudligi identifikatsion-axborot riskini kamaytiruvchi omil sifatida baholanishi mumkin.

NBU faoliyati bo‘yicha ochiq ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan integral baholash natijasida xalqaro pul o‘tkazmalari risk ko‘rsatkichi 2,85 ballni tashkil etdi va o‘rta risk darajasiga mos keldi. Natija bankda xalqaro pul o‘tkazmalarining geografik qamrovi va to‘lov kanallari diversifikatsiyasi risklarni kompleks baholash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois xalqaro operatsiyalarni baholashda mijoz profili, geografik yo‘nalish, tranzaksiya xususiyati va identifikatsion ma’lumotlarni yagona integral model asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

[1] “O‘zmilliybank” aksiyadorlik jamiyati sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro pul o‘tkazmalarini baholashda mijozning joriy operatsiyasini uning avvalgi moliyaviy xatti-harakati bilan taqqoslash alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, pul o‘tkazmasining geografik yo‘nalishi, operatsiyalar soni va chastotasi, to‘lov kanali hamda identifikatsion ma’lumotlarning to‘liqligi birgalikda hisobga olinishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq moliyaviy risklarni kompleks va integral baholash riskli operatsiyalarni erta aniqlash imkonini oshiradi. Bank amaliyotiga mijoz, geografik, tranzaksion, to‘lov kanali va identifikatsion risklarni birlashtiruvchi balli baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, yuqori riskli operatsiyalar uchun kuchaytirilgan nazorat, mijozlarning moliyaviy profilini muntazam yangilash va risk indikatorlarini real operatsiyalar asosida qayta ko‘rib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining tijorat banklarida ichki nazorat qoidalariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qarori. Ro‘yxat raqami 2886-12. – 08.05.2026.
2. Malikova D.M. Tijorat banklari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish. – Toshkent, 2024.
3. Karimov M.A. Tijorat banklarida bozor risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirish. – Toshkent, 2025.
4. Islamova E.A., Lvova M.I. Управление финансовыми рисками коммерческих банков // Финансы и кредит: адаптация и тренды развития.
5. Porozov V.V. Исследование влияния факторов риска на финансовую устойчивость коммерческих банков. – Екатеринбург, 2022.